

IJTIMOYIY TAXDIDLARNI TADQIQ ETISHGA QARATILGAN ILMIY MAKTABLAR

Xamdamov A.E

Mustaqil izlanuvchi

Jumladan, mazkur yo'nalishdagi ijtimoiy xavf (risk) nazariyasi XX asr oxirlarida nemis sotsiologi U.Bek tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unda zamonaviy jamiyatdagi ilmiy-texnika yutuqlari, iqtisodiy va ijtimoiy tebranishlar natijasida yuzaga keladigan yangi xavf va ko'ngilsizliklarning ehtimoliy oqibatlarini tadqiq etilgan³⁹. Ushbu ta'limotga ko'ra, ijtimoiy himoya va risklarni boshqarishning an'anaviy mexanizmlari zamonaviy tahdidlar oldida o'z samaradorligini yo'qotib bormoqda, chunki, ijtimoiy xavf va tahdidlar yanada murakkab, keng ko'lamli ko'rinishga kelib, global tus olmoqda.

Ijtimoiy xavf nazariyasi ko'plab sotsiologlar, siyosatshunolar, iqtisodchilar va boshqa tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan, ular mazkur nazariy yondashuvdan zamonaviy jamiyat hayotining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, ekologik muammolar, ijtimoiy tengsizlik, siyosiy beqarorlik va boshqa muammolarni tahlil qilish hamda ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sog'liqni saqlash omilini baholashda foydalanish mumkinligini e'tirof etishgan.

Ijtimoiy xavf nazariyasida jamiyatdagi shaxs va guruhlar duch keladigan xavf va ehtimoliy ko'ngilsizliklarni (risk) tahlil qilish davomida qashshoqlik, ijtimoiy tengsizlik, diskriminatsiya va ijtimoiy xizmatlarning cheklanganligi kabi salbiy omillar ijtimoiy tahdid manbalari sifatida ko'rilgan hamda ularning odamlar hayoti va turmush tarziga ta'siri tahlil qilingan.

Ushbu yondashuvda ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sog'liqni saqlash omilini baholash mezonini sifatida ehtimoliy risk va tahdidlar ilgari surilgan. Ushbu yondashuv tarafdorlari ijtimoiy himoyaning an'anaviy shakllari yangi xavf va risklarni bartaraf etish uchun yetarli emasligini, shu sababli, ijtimoiy tahdidlarni doimiy baholab borish va ularga qarshi chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurligini ta'kidlashgan.

Yana bir nemis sotsiologi N.Luman ham o'zining tizimlar nazariyasida ijtimoiy xavf tushunchasiga to'xtalib o'tgan⁴⁰. Luman zamonaviy jamiyat nihoyatda murakkab tuzilishga ega ekanligini ta'kidlab, unda aloqa (kommunikatsiya) va ijtimoiy tizimning tahdidlarga qarshi kurashishdagi imkoniyatlari haqida fikr yuritgan.

Sheldon Krimskiy, Dominik Golding kabi ijtimoiy xavf nazariyasi namoyandalari xavfsizlik subyektlarining o'zaro ijtimoiy munosabatga kirishishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potensial xavflar va salbiy ta'sirlarni baholashga harakat qilgan⁴¹. Mazkur ta'limot ijtimoiy xavf dinamikasini kengroq ochib berishga yordam beradi va ijtimoiy kapital, ijtimoiy hamjihatlik, ijtimoiy xavflarga bardoshlilik, ijtimoiy notenglik kabi kategoriyalarni o'z ichiga oladi.

³⁹Beck U. Risikogesellschaft: auf dem Weg in eine andere Moderne // <https://www.suhrkamp.de/buch/ulrich-beck-risikogesellschaft-t-9783518113653>, 18.02.2026

⁴⁰Luhmann N. Vertrauen: Ein Mechanismus der Reduktion sozialer Komplexität // www.goodreads.com/book/show/7727150-vertrauen-ein-mechanismus-der-reduktion-sozialer-komplexitaet, 12.01.2026

⁴¹Krimskiy Sh., Golding D. Social Theories of Risk // <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/book/1012>, 12.02.2026.

Unga ko'ra, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy kapital muhim ahamiyatga ega, ijtimoiy soha subyektlari o'zaro munosabatga kirishishi bilan bir qatorda bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik orqali ijtimoiy tahdidlarni chetlab o'tishi mumkin. Ijtimoiy kapitali yetarli bo'lmagan jamiyat xavf va tahdidlardan ko'proq zarar ko'radi. Bunda ijtimoiy bardoshlilik va hamjihatlik ijobiy rol o'ynasa, imkoniyatlarning cheklanishi hamda ijtimoiy tabaqalanish ijtimoiy xavfsizlikka salbiy ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Ijtimoiy hamjihatlik – ijtimoiy guruhlarining umumiy qadriyatlar va hamkorlik asosida kuchli ijtimoiy birlashuvi hisoblanib, ularning ijtimoiy qiyinchiliklarni birgalikda yengib o'tish qobiliyatidir.

Imkoniyatlarning cheklanishi – bu ijtimoiy xavf nazariyasining yana bir kategoriyasi hisoblanib, unga ko'ra, ayrim shaxs yoki guruhlar jamiyatda boshqalar uchun mavjud bo'lgan resurslar, huquqlar va imkoniyatlardan mahrum bo'lganida yoki to'liq foydalana olmaganida yuzaga keladi. O'z navbatida, ushbu holat keyinchalik qashshoqlik, diskriminatsiya kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin⁴². Xuddi shu kabi salbiy omillardan biri ijtimoiy tabaqalanish hisoblanib, jamiyat a'zolarining tili, dini, iqtisodiy holati, shaxsiy va ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, yoshi kabi muayyan belgilariga ko'ra bo'linishini anglatadi va ijtimoiy guruhlar o'rtasida ziddiyatlar kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy bardoshlilik yoki turli tahdidlarga qarshi kurasha olish qobiliyati ijtimoiy tahdidlarning oldini olish hamda bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, nikohsiz yashash holatiga nisbatan jamiyatda murosasizlikning mavjudligi axloqsizlik va ommaviy madaniyat tahdidlaridan himoyalaniş imkoniyatini oshiradi. Bunda ijtimoiy bardoshlilik milliy an'ana va qadriyatlarga tayanadi.

Ijtimoiy bardoshlilik tushunchasini ijtimoiy hamjihatlikning hosilasi sifatida ham ko'rish mumkin. Ya'ni, jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy hamjihatlik qanchalik kuchli shakllangan bo'lsa, uning tahdidlarga nisbatan bardoshliliği ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Ijtimoiy xavf nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy xavfsizlik holati turli salbiy omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar, yo'qotish yoki boshqa salbiy oqibatlar ehtimoli bilan baholanadi. Agar jamiyatda ijtimoiy tahdidlar qanchalik ko'p bo'lsa, demak, ijtimoiy xavfsizlik holati qoniqarsiz, aksincha bo'lsa, ijtimoiy xavfsizlik holati yuqori.

O'z navbatida ular ijtimoiy tahdidlarni tuzilmaviy (ijtimoiy institutlar va tizimlar bilan bog'liq), madaniy (axloq normalari va qadriyatlar bilan bog'liq) yoki individual (shaxsning o'ziga xosligi bilan bog'liq) bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi⁴³. Mazkur tahdidlarning har biri ta'sir darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi hamda ularni bartaraf etish uchun alohida chora-tadbirlar ko'rishni talab etadi.

Ushbu yondashuv ijtimoiy tahdid manbalari sifatida qashshoqlik, ishsizlik, diskriminatsiya, ijtimoiy cheklanganlik, ijtimoiy himoya tizimining zaifligi, atrof-muhit ifloslanishi va siyosiy beqarorlik kabilarni ko'rsatib o'tadi. Mazkur omillar, o'z navbatida, turli ijtimoiy tahdidlar yuzaga kelishiga sharoit yaratadi hamda aholining ijtimoiy hayoti izdan chiqishga sabab bo'ladi. Buning oldini olish uchun davlat aralashuvi talab etiladi: ijtimoiy adolat, tenglik va inklyuzivlikni rag'batlantiradigan ijtimoiy siyosat yuritilishi

⁴²Krimskiy Sh., Golding D. Social Theories of Risk // <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/book/1012, 12.02.2026>.

⁴³Science Direct Risk Society // <http://surl.li/qwaaaj, 15.01.2026>.

mazkur muammolarni bartaraf etishning asosiy yechimlari hisoblanadi. Keng qamrovli ijtimoiy himoya mexanizmlari, qashshoqlikni qisqartirish strategiyalari, ijtimoiy hamjihatlikni rag'batlantirish chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan davlat siyosati ijtimoiy risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Inson kamoloti indeksi (Human Development Index) mamlakatning umumiy rivojlanishini o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, ta'lim va aholi jon boshiga daromad kabi omillarni hisobga olgan holda baholashga asoslangan. U mamlakatning ijtimoiy rivojlanishini har tomonlama o'rganishga xizmat qiladi va BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan keng qo'llaniladi.

Inson kamoloti indeksi quyidagi uchta ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymatidir:

$$HDI = (I_{Health} + I_{Education} + I_{Income})^{1/3}$$

Bu yerda:

HDI – inson rivojlanish indeksi;

I_{Health} – sog'lik indeksi (o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 20-85 yil oraliqda hisoblanadi);

$I_{Education}$ – ta'lim indeksi (ta'lim olish davomiyligi 0-18 yil oraliqda hisoblanadi);

I_{Income} – daromad indeksi (aholi jon boshiga YaIM 100-75 ming AQSh dollari oralig'ida hisoblanadi).

Natija 0...1 oraliqda hisoblanadi, 4 darajada (past inson kamoloti darajasidan juda yuqori inson kamoloti darajasiga qadar) baholanadi⁴⁴.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga oid nazariy yondashuvlar ijtimoiy xavfsizlik holatini o'rganish bo'yicha uzoq yillik ilmiy izlanishlar natijasi hisoblanadi hamda hozirgi taraqqiy etgan jamiyat muammolarini bartaraf etishda kompleks yondashuvni amalga oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning har biri ijtimoiy xavfsizlik holatini o'rganishda ustuvor yo'nalishlarni belgilab olishga yordam beradi hamda ijtimoiy hayotning murakkab xususiyatlarini, ijtimoiy risk (tahdid)larning vujudga kelish va rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Ijtimoiy xavfsizlik holatini sotsiologik baholashning yangi metodlarini ishlab chiqishda mazkur ta'limotlarda e'tirof etilgan fundamental manfaatlarni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

⁴⁴Human Development Reports Human Development Index // <https://hdr.undp.org/data-center/human-development-index#/indicies/HDI>, 22.02.2026.